

Imlo havaskorlari

(Izoh yo 'li bilan)

Bizda 4 yildan buyon ezib achki bo'lib ketgan imlo masalasi, qisqartirilganda shu eski modda ostiga kirib bitadur:

1. O'zbekcha yalpoq til bilan aytganda "sin" tovushidek eshitiladurg'on "sa, sod"; "ta" tovushidek eshitiladurg'on "to": "za" eshitiladurg'on "dod, izg'i, zol" harflarini eshitganicha yozishmay, yoki qorilar kabi qiroat bilan yozishmay (o'z shakli bilan)?

2. So'zlar qalin ingichkaga bo'linadimi, yo'qmi, bo'linsa qanday o'rinda qalin qanday o'rinda ingichka?

Bizda "imlo, imlo" deb qichqirib yurgan kishilar orasida eng janjallik masala shul ikkisi bo'lib, boshqasi to'g'risida u qadar talash qilg'uvchi va qichqiruvchi kishi ko'runmaydur; bizda cho'zgi harflar qancha? Kelgusida yalri imlo qabul qilish uchun qanday choralar ko'rish kerak? Bu haqda tushuncha va zamin hozirlovchi imlochilar juda oz. Balkim yo'q hukmidadir.

Yuqorida sanab o'tilgan janjallik ikki modda ichiga kiritilib yurgizilgan 1) Qoshliq "alif mad" mi, ilmoqliq (alif hamza)mi? 2) ingichka ost cho'zgi "yo" qay shaklda va qay o'rinda yozilmasin; 3) harflar bir shakldami, yo'qmi masalalri so'ngdan imlo uchun chiqarilmagan markazlar bo'lib, bularning ilmiy masala qoshida zarar qadar ahamiyatsizki yolg'iz texnikaga oiddir.

Endi bizda bizda imlo asos masala bo'lgan yuqoridagi ikki moddaga kelganda buning ta'siri juda ko'p ham bu 2 moddaning ustida imlo havaskorlari yoki to'g'ridan to'g'ri "imlochi" otini olgan kishilar juda ko'pdir.

Shu so'zimni quvvatlash uchun shu dalillarni keltiraman:

Qachon 22 yilning boshida bizda imlo qurultoy to'plandi. Bunda ham shu masala janjalning boshi bo'ldi. So'nggi maorif qurultoyi va undan keiyn bo'lsun bu haqda juda ko'p fikr va mulohazalar yuritildi. Tanqidlar yozildi, janjallar qilindi. Qichqirishlar bo'ldi. Xalqlar o'rtasida imlo masalasi tarqaldi. Turlik yolg'on va ahmaqlik gaplar ko'p so'zlandi... Lekin, to'p masala haligi bizdagi imloning tafsild moddasi bo'lgan ikki narsa edi...

Har narsaning so‘nggi bo‘lgandek bizda ham o‘rtada janjalg‘a bois bo‘lib yurgan “mahdud imlo”ning ham so‘nggi yaqinlashdi. Buning tarixini 23 yilning boshi deb hisoblamoq mumkin: bu haqda mutavahhid frunt yoki buyuk xitobnama bilan boshlangan maqolalardur. Imlo haqidagi kelishish xabari “Turkiston” gazetasida (42 son) g‘ayri rasmiy suratda e’lon qilindi. (Buni e’lon qiluvchi yoki e’lon qildirishga tirishuvchi kim bo‘lsa bo‘lsun).

Bundan kutilgan maqsad juda zo‘r edi. Lekin amalda bir nima ko‘rinmadni. Yolg‘iz Hoji Muinning “Zarafshon” (16 son)da bosilgan maqolasidan boshqa xoh matbuot va xoh xalq orasida zarar qadar ta’siri bo‘lmadi. Imlo haqida xalq tilidan rivoyat qilingan xabarlar va bu to‘g‘rida ro‘kach qilinib so‘zlangan so‘zning ochiq asossiz bo‘lgani bilindi. “Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydurib yurgan” yangi va o‘rta imloni qo‘yib ikki eski “Miftohul jinon” imlosini qo‘llab yurgan “Farg‘ona” gazetasi va “Inqilob” jurnallari bu masalaga qayrilib ham boqmasdan o‘z yo‘llaridan keta berdilar. To‘g‘risi, bu tajriba bizga hozirgacha so‘zlanib yurgan rivoyat va mulohazalarning tubsiz bo‘lganini ochiq bildirdi. Tag‘in ham ham to‘g‘risi uning bizda janjal va qichqirishdan o‘tib ilmiy bir holga yaqinlashgani sezildi.

Endi masalaning ilmiy tomoniga kelolsak imlo masalasi qachon bo‘lsa bo‘lsun, ilmiy bir yo‘l bilan bormasa bunda emish, emishlar bilan bir ish chiqmaydur. Ilmiy tomondan boqqanda bizda imlo haqidagi janjal 1) yot harflar 2) qalinliq, ingichkalik masalasi edi. Imlo haqidagi so‘nggi mulohaza va qarorlar chin ilmiyatga xizmat qilmasa ham buning yaxshigina zamin hozirladi, shul qarorni chiqargan komissiya o‘rtasida imloning ilmiy tomoniga ham yaxshigina ko‘zsalandi bu kungacha e’tirof qilishga yo‘l berilmay turgan mavhum ittifoq bilan iqror qilindi, ham bu kungacha imlo masalasi bois bo‘lib bo‘lingan yoki bo‘lingan deb o‘ylangan maorif kuchlarining birga to‘planmog‘iga yo‘l ochdi. Bundan boshqa boyagi yot harflar to‘g‘risida hozir chiqarib tashlashni maslahat ko‘rulmasa ham qalinliq, ingichka masalasi qanoatlanurlik bir suratda hal qilindi.

Xulosa shul kungacha yolg‘iz arab harfi ustida umumiy qarash turlicha bo‘lib kelgan bo‘lsa hozir bir to‘g‘ri yo‘l olish tomoniga yo‘naldi.

Endi bizda va bizdagi imlochilarda “dastmoya” bitib qolgan kabi bo‘lib qoldi. Buni ko‘rgandan so‘ng imlochilarning xotiriga imlo haqida yangi bir masalani solib o‘tar edim.

O‘rtoqlar bizda hali ish tamom bo‘lgani yo‘q. Hali bizda ishlatib yurilgan arab harflari yaralmog‘i yaroqsizmi, yoki boshqasiga ehtiyoj bormi cho‘zgilarning soni qancha bo‘lishi kerak masalalari bor. Bu to‘g‘rida hali bizda qanoatlanaturlik bir ish ko‘rilgan emas. Bizga va bizdagi imlochi va imlo havaskorlariga bu to‘g‘rida so‘z qo‘zg‘atishga juda vaqtdir.

Endi kelaylik o‘rtoq Hoji Muinning “Zarafshon”dagi yozganlariga.

Bu o‘rtoq imlo masalasida boshida yaxshigina muhokama yuritib kelib, so‘ngidan bu haqda bo‘lgan o‘z shevasini va balki “bunda yashirilgan bir siyosat bormi?” degan kabi o‘ylaganini so‘zlaydur. Ham o‘z so‘ziga dalil qilib “Turkiston” gazetasi buni ijro qilinmaganini va komissiya a’zolaridan ba’zilari o‘z maqola va kitoblarini o‘zлari qaror qilgan imloda yozmag‘onliklarini so‘zlamakchi bo‘ladur. Bu to‘g‘rida quydagi spravka berish muvofiq topiladur.

1) Imlo haqida Toshkentda tuzilgan komissiyaning qarori hali rasmiy yerlardan tasdiq bo‘lgani yo‘q. Shuning uchun buning ijrosi ham hali majburiy bo‘lgan emas. “Turkiston” gazetasi o‘z imlosida chiqib turg‘on bo‘lsa ham, qaror tasdiq qilinish bilan buning ijrosiga majbur bo‘lsa kerak. Buni tasdiq qildirishdan burun o‘zbeklar orasida bu to‘g‘rida havaskor zotlarning fikr va maslahatlari tamom anglanilmag‘i lozimdir.

2) Komissiya a’zolari bu qarordan so‘ng hali kitob yozganlari yo‘q. Yozsalar qanday tuzganlari haqida to‘g‘risida kitobda ma’lumot bo‘lmadur. Ham shuning bilan barobar bundan keyin komissiya a’zolari biror kitob yozganda boshqa turli majburiyat bo‘lmasa o‘zлari qaror qilgan yo‘l va bu haqda tuzilgan shartnoma bo‘yincha ish ko‘rilar. Biroq maqolalarning imlosi gazeta va jurnal idoralarning qo‘lida bo‘lganligidan uning imlosi haqida ma’zur bo‘lsa kerak.

Shuning bilan birga har birida mumkin qadar bir turli imlo bilan ketmak va imlo masalasini barobarlashib ilmiy bu darajadagi yetkazmak albatta lozimdir.

Bu to‘g‘rida fikrlarimizni yerga to‘plab birgalashib ilgari yuraylik: ham juda ortiq taasubga berilmasdan bir qadar insof bilan ish ko‘rish albatta lozimdur “ichimdagini top!” deb jim yotmasdan haqiqatni maydonga otish kerak.

SH.Rahim

“Turkiston” gazetasi. 1923 yil 1 yanvar.